

III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar) larining umumiy hajmi 30 146,1 mlrd so‘mni yoki 2023 yilning shu davriga nisbatan 1,2 foizga o‘tdi, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik hamda ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 29 302,0 mlrd so‘mni (1,2 %), ovchilik sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar 1,2 mlrd so‘mni (0,9 %), o‘rmon xo‘jaligida 475,1 mlrd so‘mni (2,9 %), baliqchilik xo‘jaligida 367,8 mlrd so‘mni (2,9 %) tashkil qildi. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)lari hajmining o‘sishi asosan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohada ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada ortishi bilan bog‘liqdir.

Xususan, yuqori o‘shish sur‘atlari Forish (108,6 %), G‘allaorol (107,3 %), Zarbdor (106,1 %) va Baxmal (105,5 %) tumanlarida kuzatildi. O‘z navbatida Do‘stlik (89,0 %) va Sharof Rashidov tumanlarida (93,3 %) o‘shish kuzatilmadi.



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari;
67,0%



Qishloq xo‘jaligi korxonalari;
6,6%

Fermer xo‘jaliklari;
26,4%

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tarkibiy tuzilishida eng yuqori ulush dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi (umumiy hajmga nisbatan 67,0 foiz).

Dehqonchilik. 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 10 812,0 mlrd so‘mni yoki 2023- yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 98,1 foizni, ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida ulushi 37,4 foizni tashkil qildi.

Hosilni yig'ib olish. Hisobot davrida barcha toifadagi xo'jaliklarda 735 245 tonna (o'tgan yilga nisbatan 103,3 %) jami don, 601 334 tonna (102,2 %) boshqoli don, 522 209 tonna (102,6 %) bug'doy, 72 524 tonna (111,4 %) makkajo'xori, 111 060 tonna (105,5 %) kartoshka, 491 741 tonna (104,0 %) sabzavotlar, 326 163 tonna (105,7 %) oziqbop poliz, 100 191 tonna (100,2 %) mevalar va rezavorlar, 33 039 tonna (101,6 %) uzum yig'ib olindi.



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida xo'jalik toifalari bo'yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



	Barcha toifadagi xo'jaliklar		Shu jumladan:					
			Fermer xo'jaliklari		Dehqon va tomorqa xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o'sish sur'ati, foizda	tonna	o'sish sur'ati, foizda	tonna	o'sish sur'ati, foizda	tonna	o'sish sur'ati, foizda
Don jami	735 245	103,3	653 274	106,9	22 131	103,0	59 840	75,1
Boshqoli don	601 334	102,2	541 131	105,3	10 297	101,9	49 906	77,3
shundan: bug'doy	522 209	102,6	477 411	106,2	7 863	100,6	36 935	71,2
makkajo'xori don uchun	72 524	111,4	58 695	129,1	10 792	103,6	3 037	33,1
Kartoshka	111 060	105,5	42 933	105,2	59 038	105,2	9 089	108,6
Sabzavotlar- jami	491 741	104,0	221 759	103,5	245 855	104,7	24 127	100,7
Poliz – jami	326 163	105,7	192 946	109,8	87 889	100,9	45 328	99,2
Mevalar va rezavorlar- jami	100 191	100,2	38 719	92,5	53 644	105,0	7 828	111,3
Tokzorlar	33 039	101,6	14 439	100,1	17 340	104,8	1 260	81,9



2024 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



**HUDUDLAR BO‘YICHA
DON
YETISHTIRISH**






**HUUDDLAR BO'YICHA
MAKKAJO'XORI, DON UCHUN
YETISHTIRISH**



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Makkajo'xori doni yetishtirishning eng katta hajmi 58,7 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 80,9 foizi fermer xo'jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 3,0 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 4,2 foizi qishloq xo'jaliklari tashkilotlarida kuzatildi.


2024 yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan, fermer xo'jaliklarida 29,1 foiz, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 3,6 foizga o'sish kuzatildi.



**HUUDUDLAR BO'YICHA
KARTOSHKA
YETISHTIRISH**



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Kartoshka yetishtirishning eng katta hajmi 59,0 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 53,1 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 9,1 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 8,2 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan kuzatildi.


2024 yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilga nisbatan, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 8,6 foizga, fermer xo'jaliklarida 5,2 foizga, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 5,2 foizga o'sish kuzatildi.



**HUDUDLAR BO‘YICHA
SABZAVOTLAR
YETISHTIRISH**



Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



Savzavotlar yetishtirishning eng katta hajmi 245,6 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 50,0 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 24,1 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 4,9 foizi qishloq xo‘jaligi korxonalarida kuzatildi.

2024 yilning yanvar-dekabr oylarida o‘tgan yilga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 3,5 foizga, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 4,7 foizga o‘shish kuzatildi.

Chorvachilik. Chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan tizimli qo'llab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining o'sishiga, ichki iste'mol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan to'yinishiga imkon yaratildi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 18 098,5 mlrd so'mlik chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'sish sur'ati 2023- yilning shu davriga nisbatan 103,0 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 62,9 foizni tashkil etdi.

2025- yilning 1-yanvar holatiga viloyatdagi yirik shoxli qoramollar bosh soni 982,1 mingtani (o'sish sur'ati 101,8 %), shu jumladan sigirlar bosh soni 275,3 mingtani (101,4 %), qo'y va echkilar bosh soni 2 393,8 mingtani (102,0 %), otlar bosh soni 30,4 mingtani (102,2 %) va parrandalar bosh soni 4 023,6 mingtani (101,1 %) tashkil qildi.



2025- yil 1-yanvar holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		Shu jumladan:					
			Fermer xo'jaliklari		Dehqon va tomorqa xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	bosh soni	o'sish sur'ati, foizda	bosh soni	o'sish sur'ati, foizda	bosh soni	o'sish sur'ati, foizda	bosh soni	o'sish sur'ati, foizda
Yirik shoxli qoramollar	982 145	101,8	66 275	101,8	874 529	101,8	41 341	103,6
Sigirlar	275 253	101,4	22 971	100,0	236 531	101,3	15 751	106,0
Qo'y va echkilar	2 393 778	102,0	463 656	99,7	1 483 688	101,8	446 434	105,1
Otlar	30 366	102,2	8 213	96,5	15 602	100,8	6 551	114,3
Parrandalar	4 023 631	101,1	360 068	100,6	1 526 148	100,6	2 137 415	101,6

Umumiy bosh soniga nisbatan dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 89,0 foizni, fermer xo'jaliklarida 6,8 foizni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 85,9 va 8,3 foizni, qo'ylar va echkilar 62,0 va 19,4 foizni, otlar 51,4 va 27,0 foizni, parrandalar 37,9 va 8,9 foizni tashkil qildi.



HUDUDLAR BO'YICHA YIRIK SHOHLI QORAMOLLAR YETISHTIRISH

Yirik shoxli qoramollar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Baxmal tumani (17,8 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush G'allarol (17,5 %) va Zomin (12,5 %) tumanlarida qayd etildi.


Shu bilan birga, eng kam ulush Jizzax shahri (1,3 %) va Do'stlik tumanlari (4,0 %) da kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2023- yil yanvar-dekabriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Baxmal (106,4 %) va Zafarobod (103,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Soni (ming bosh)

Jizzax sh.	13,2
Do'stlik	39,0
Mirzacho'l	41,9
Zafarobod	43,9
Yangiobod	44,1
Arnasoy	49,1
Paxtakor	53,9
Forish	70,6
Zarbdor	72,6
Sh.Rashidov	83,6
Zomin	122,7
G'allarol	172,4
Baxmal	175,1

Jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- 2025- yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:
- yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 982,1 mingtaga etdi.
 - yirik shoxli qoramollar bosh soni 2024- yil 1-yanvariga nisbatan 17,8 mingtaga (1,8 %) ko'paydi.
 - yirik shoxli qoramollar bosh sonining 89,0 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilga nisbatan fermer xo'jaliklarida 1,8 foiz, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 1,8 foizga o'sish kuzatildi.



**HUUDUDLAR BO‘YICHA
SIGIRLAR
YETISHTIRISH**

Soni (ming bosh)



Sigirlar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Baxmal tumaniga (16,5 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush G‘allaorol (15,1 %) va Zomin (14,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, sigirlarning umumiy bosh sonidagi eng kam ulush Jizzax shahri (1,3 %) va Mirzacho‘l tumanida (3,8 %) kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2023 yilning yanvar-dekabriga nisbatan eng yuqori o‘shish sur‘atlari Forish tumani (104,1 %) va Mirzacho‘l tumanida (103,7 %) qayd etildi.

Jizzax sh.	3,6
Mirzacho‘l	10,6
Zafarobod	11,2
Do‘stlik	12,3
Arnasoy	13,7
Paxtakor	14,5
Yangiobod	15,5
Forish	19,7
Zarbdor	21,3
Sh.Rashidov	25,9
Zomin	40,1
G‘allaorol	41,4
Baxmal	45,5

Sigirlar jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2025- yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- sigirlarning umumiy bosh soni 275,3 mingtaga yetdi.
- sigirlar bosh soni 2024- yil 1-yanvariga nisbatan 3,8 mingtaga (1,4 %) ko‘paydi.
- sigirlar bosh sonining 85,9 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida o‘shish kuzatilmadi.



**HUDUDLAR BO‘YICHA
QO‘YLAR VA ECHKILAR
YETISHTIRISH**

Qo‘y va echkilar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Forish tumaniga (35,8 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Baxmal (13,4 %) va G‘allaorol (13,2 %) tumanlarida qayd etildi.


Shu bilan birga, qo‘y va echkilar umumiy bosh sonidagi eng kam ulush Arnasoy tumani (1,3 %) va Jizzax shahrida (1,9 %) kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2023 yilning yanvar-dekabriga nisbatan eng yuqori o‘shish sur‘atlari Paxtakor (111,7 %) va Mirzacho‘l tumanlarida (109,9 %) qayd etildi.

Soni (ming bosh)

Arnasoy	30,6
Do‘stlik	41,8
Jizzax sh.	45,4
Paxtakor	50,8
Mirzacho‘l	66,4
Zarbdor	67,2
Yangiobod	101,1
Zafarobod	108,3
Sh.Rashidov	183,7
Zomin	203,0
G‘allaorol	316,5
Baxmal	321,6
Forish	857,4

Qo‘ylar jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2025- yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 393,8 mingtaga etdi.
- qo‘y va echkilar bosh soni 2024- yilning 1-yanvariga nisbatan 46,7 mingtaga (2,0 %) ko‘paydi.
- qo‘y va echkilar bosh sonining 62,0 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 0,3 foizga kamayish kuzatildi.




**HUUDUDLAR BO'YICHA
PARRANDALAR
YETISHTIRISH**


Parrandalar umumiy bosh sonining eng katta ulushi G'allaorol tumani hissasiga (41,1 %) to'g'ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Sharof Rashidov (11,3 %) va Zomin (8,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, parrandalar umumiy bosh sonidagi eng kam ulush Yangiobod (1,0 %) va Do'stlik (1,4 %) tumanlarida kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2023 yilning yanvar-dekabriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati Forish tumanida (103,8 %) qayd etildi.



Parrandalar jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- Parrandalarning umumiy bosh soni 4 023,6 mingtani tashkil qildi.
- Parrandalar bosh soni 2024- yil 1-yanvargacha nisbatan 44,8 mingtaga (1,1 %) ko'paydi.

- Parrandalar bosh sonining 1-yanvargacha 37,9 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilga nisbatan fermer xo'jaliklarida 0,6 foizga o'sish kuzatildi.



**HUUDLAR BO'YICHA
OTLAR
YETISHTIRISH**

Otlar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Forish tumani hissasiga (32,1 %) to'g'ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Sharof Rashidov (15,0 %) va Baxmal (10,2 %) tumanlarida qayd etildi.


Shu bilan birga, otlarning umumiy bosh sonidagi eng kam ulush Jizzax shahri (0,7 %) va Do'stlik tumanida (0,8 %) kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2023 yil yanvar-dekabrga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Mirzacho'l tumani (124,5 %) va Do'stlik tumanida (109,2 %) qayd etildi.

Soni (ming bosh)

Jizzax sh.	0,2
Do'stlik	0,2
Paxtakor	0,5
Yangiobod	0,5
Arnasoy	0,6
Mirzacho'l	1,8
Zafarobod	1,8
Zarbdor	2,2
Zomin	2,5
G'allaorol	2,6
Baxmal	3,1
Sh.Rashidov	4,6
Forish	9,8

Otlar jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:


- Otlarning umumiy bosh soni 30,4 mingtaga etdi.
- Otlar bosh soni 2024- yil 1- yanvariga nisbatan 649 boshga (2,2 %) ko'paydi.
- Otlar bosh sonining 51,4 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilga nisbatan fermer xo'jaliklarida 3,5 foizga kamayish kuzatildi.



CHORVACHILIK MAHSULOTLARI

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 18 098,5 mlrd so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan o‘shish sura’ti 103,0 foizni tashkil qildi. Jami yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 62,9 foizni tashkil etdi.



Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli ko'mak ko'rsatib kelinayotganligi chorva mollari va parrandalari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda tirik vaznda 246,8 ming tonna go'sht (2023- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,5 foizga o'sdi), 713,6 ming tonna sut (2,8 %), 379,7 mln dona tuxum (90,4 %) va 6 095 dona qorako'l teri (100,3 %) yetishtirilib, 16 273,1 tonna baliq (102,6 %) ovlandi.




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida xo'jalik toifalari bo'yicha asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



	Barcha toifadagi xo'jaliklar		Shu jumladan:					
			Fermer xo'jaliklari		Dehqon va tomorqa xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o'sish sur'ati, foizda	tonna	o'sish sur'ati, foizda	tonna	o'sish sur'ati, foizda	tonna	o'sish sur'ati, foizda
Go'sht, tirik vaznda, tonna	246 784	103,5	6 849	104,9	228 553	103,6	11 382	100,3
Sut, ming tonna	713 564	102,8	17 839	99,4	690 628	103,3	5 097	71,8
Tuxum, ming dona	379 713	90,4	28 763	103,2	203 678	101,3	147 272	77,1
Qorako'l teri, dona	6 095	100,3	3 527	112,5	530	102,1	2 038	84,1
Ovlangan baliq tonna	162 73,1	102,6	1 272,1	73,2	2 673,0	101,5	12 328,0	107,3



**HUUDLAR BO'YICHA
GO'SHT
YETISHTIRISH**



Jami go'sht yetishtirishning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida go'sht yetishtirish to'g'risidagi ma'lumotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, go'sht yetishtirishning eng katta hajmi 228,6 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 92,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

Ko'rsatib o'tilgan davrlarda, go'sht yetishtirishning eng kam hajmi 6,9 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 2,8 foizi fermer xo'jaliklarida kuzatildi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2024- yil yanvar-dekabrida fermer xo'jaliklarida 4,9 foizga, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 3,6 foizga, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 0,3 foizga o'sish kuzatildi.




HUDUDLAR BO'YICHA

SUT

YETISHTIRISH



Jami sut yetishtirishning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida sut yetishtirish to'g'risidagi ma'lumotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, sut yetishtirishning eng katta hajmi 690,6 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 96,8 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

Ko'rsatib o'tilgan davrda, sut yetishtirishning eng kam hajmi 5,1 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 0,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda kuzatildi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2024- yil yanvar-dekabrda fermer xo'jaliklarida 0,6 foiz kamayish, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 3,3 foiz o'sish, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 28,2 foiz kamayish kuzatildi.



Jami tuxum yetishtirishning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




2024 yilning yanvar-dekabr oylarida tuxum yetishtirish to'g'risidagi ma'lumotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, tuxum yetishtirishning eng katta hajmi 203,7 mln dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 53,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

Ko'rsatib o'tilgan davrlarda tuxum yetishtirishning eng kam hajmi 28,8 mln dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 7,6 foizi fermer xo'jaliklarida kuzatildi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2024- yil yanvar-dekabrida fermer xo'jaliklarida 3,2 foiz, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 1,3 foiz o'sish, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 22,9 foiz kamayish kuzatildi.



**HUDUDLAR BO‘YICHA
BALIQ
YETISHTIRISH**



Jami baliq yetishtirishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida baliq yetishtirish to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra, baliq yetishtirishning eng katta hajmi 12 328,0 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 75,8 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etildi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2024- yil yanvar-dekabrida fermer xo‘jaliklarida 26,8 foiz kamayish, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 1,5 foiz o‘shish, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 7,3 foiz o‘shish kuzatildi.